



S.f.f.d. (PhD) Nurmuhammad QARShIYEV,

O'zMU "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi"

Kafedrasi o'qituvchisi

E-mail:nurmuxammad.qarshiev@mail.ru

tel: 90 975 90 70

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MULTI-PARTY SYSTEM IN UZBEKISTAN

Abstract

We can see that the problems specific to party systems, especially multi-party systems, are also being updated and changed during the further expansion of globalization in the world. In political science, the party system, in particular, multi-party system, is one of the most researched current problems by scientists.

The article focuses on the specific features of the multi-party system, the history of the development of this party system in Uzbekistan, its legal foundations, and development prospects.

Key words: political party, party system, multi-party system, civil society, democracy, elections, electorate, parliament.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МНОГОПАРТИЙНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Мы видим, что проблемы, характерные для партийных систем, особенно многопартийных, также обновляются и изменяются в ходе дальнейшего распространения глобализации в мире. В политической науке партийная система, в частности, многопартийность, является одной из наиболее исследуемых учеными актуальных проблем.

В статье основное внимание уделяется особенностям многопартийности, истории развития этой партийной системы в Узбекистане, ее правовым основам и перспективам развития.



Ключевые слова: политическая партия, партийная система, многопартийность, гражданское общество, демократия, выборы, избирательный округ, парламент.

O'ZBEKISTONDA KO'PPARTIYAVIYLIK TIZIMINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Annotation

Jahonda globalashuvning toboro kengayib borishi asnosida partiyaviy tizimlarga, xususan ko'ppartiyaviylik tizimlariga xos muammolar ham yangilanib, o'zgarib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Siyosatshunoslikda partiyaviy tizim, xususan ko'ppartiyaviylik olimlar tomonidan eng ko'p tadqiq qilinadigan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Maqolada ko'ppartiyaviylik tizimining o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonda mazkur partiyaviy tizimning rivojlanish tarixi, huquqiy asoslari, rivojlanish istiqbollariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy partiya, partiyaviy tizim, ko'ppartiyaviylik, fuqarolik jamiyat, demokratiya, saylovlar, elektorat, parlament.

Kirish. Siyosiy partiylar paydo bo'libdiki, ular faoliyati, ularga xos xususiyatlar katta qiziqish bilan o'rganilib kelinmoqda. Siyosiy partiya ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida ko'plab tadqiqotlarning ob'ekti sifatida o'z dolzarbliги ortib bormoqda. Juhon siyosatshunoslida eng ko'p tadqiq qilinadigan hamda uning markaziy mavzularidan hisoblangan ushbu mavzu doirasida bahs munozaralarning ko'pligi ham fikrimizni isbotlaydi. Birgina misol sifatida siyosiy partiylar, partiyaviy tizimlarga berilgan ta'riflarning turlichaligi ularni umum'etirof etilgan yagona birligi mavjud emasligini keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda siyosiy partiyalarning erkin faoliyat yuritishlari, uning demokratiyani targ'ib qiluvchi va kafolatlovchi institut sifatidagi ahamiyatini oshirish nuqtai nazaridan ko'plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Siyosiy partiyalarning saylovlardagi ishtirokining soddalashtirilganligi qabul qilingan "Saylov Kodeksi"da o'zining aksini topganligi yoki 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida siyosiy partiyalarning rolini oshirish vazifalari belgilab



berilganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, Taraqqiyot strategiyasining 7-maqсадада: “Barcha sohalarda vaziyatni har tomonlama o‘rganish va mavjud muammolarni hal etish uchun ta’sirchan choralar ishlab chiqishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada kuchaytirish, qabul qilingan qonunlarning amaliyatda so‘zsiz va to‘liq ijro etilishini ta’minlashda parlamentning ishtirokini kengaytirish” [1] vazifasi belgilab berilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda siyosiy partiyalarning faoliyati 1992-yilda qabul qilinib, 2023-yilda umumhalq muhokamasi “Referendum” yo‘li orqali yangilangan Konstitutsiyada keltirilgan moddalar partiya faoliyatiga bag‘ishlanganligi, mamlakat ijtimoiy–siyosiy hayotida siyosiy partiyalarning naqadar muhim siyosiy institut ekanligidan dalolat beradi.

Asosiy qism. Ko‘ppartiyaviylik dunyo siyosatshunosligida eng ko‘p murojaat qilinadigan dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Mazkur mavzuni ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar turli yondashuvlar asosida o‘rganishgan bularga: M.Dyuverje, T.Gobbs, G.Gegel, J.Sartori, J.Lokk, D.Bell, S.Uayt, M.Ostrogorskiy, D.Chijov, M.N.Grachyev, Yu.V.Irxin, Yu.G.Korgunok o‘zbek olimlaridan M.Qirg‘izboyev, Q.Nazarov, R.Hasanov, V.Qo‘chqorov, X.Axmedov, B.Yakubov va boshqalar.

XX-asrning 90-yillariga kelib O‘zbekiston hududida mavjud totalitar tuzum o‘z inqiroziga yaqinlashib, mavjud partiyaviy tizim jamiyatdagи ijtimoiy zo‘riqishlarga dosh bera olmay qolgan edi. Bunga yagona partyaning jamiyatda asta sekin shakllanib kelayotgan ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlariga javob bera olmay qolganligi qolaversa, markazlashgan boshqaruvning inqirozi hamda uning bevosita partiya faoliyati bilan bog‘langanligi ham partiyaviy tizim inqirozini tezlashtirdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach eng avvalo, siyosiy, iqtisodiy muhitni izga solishi, qisqa muddat ichida aholining yangi siyosiy tizimga, demokratiyaga bo‘lgan ishonchini paydo qilishi, mustahkamlashi lozim edi. Mazkur jarayonlarda demokratik siyosiy institutlarning keng ishtiroki talab qilinar edi. O‘zbekiston o‘zini ko‘ppartiyaviylikka asoslangan huquqiy, demokratik davlat deb e’lon qilishi asnosida mamlakatda yangi siyosiy partiyalar tuzila boshlandi. Eng avvalo, siyosiy partiyalarning faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirishga ehtiyoj bor edi. Shu maqsadda bir qator qonunlar jumladan, “1991-yil 15-fevralda qabul qilingan “Jamoat birlashmalari



to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 2004-yil 30-aprelda qabul qilingan “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 2007-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni hamda keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi “Saylov kodeksi”(2019) qabul qilindi.

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimi joriy qilinishi asnosida paydo bo‘lgan dastlabki partiyalar jamiyatni nisbatan to‘liqroq qamrab olishga harakat qilgan bo‘lsa, keyinchalik siyosiy partiyalar sonining ortib borishi natijasida elektorat bo‘linishi hodisalari yuz berib uning yanada torayishi, aniqlashishi va ijobiy ma’noda parchalanish jarayoni yuz bera boshladi. Mamlakatda paydo bo‘lgan dastlabki partiyalar o‘tish davri sharoitida jamiyatni katta qismini tashkil qilgan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan qatlami shuningdek, ziyorilar, o‘qituvchilar, ishchilar, shifokorlar kabi qatlamlarini qamrab olganligini kuzatishimiz mumkin.

Hozirda mavjud siyosiy partiyalarning elektorati nisbatan aniqlashgan hamda institutsional jihatdan ular to‘liq shakllanib, mafkuraviy asoslarini mustahkamlagan holda jamiyatning kuchli siyosiy institutiga aylanib ulgurgan. To‘g‘ri bugungi kunda mavjud siyosiy partiyalar faoliyatida ayrim kamchiliklar masalan, ayrimlarida siyosiy jarayonlardagi faollikning yetishmasligi yoki ma’lum bir siyosiy voqyeylikka nisbatan qat’iy siyosiy pozitsiyada turish ko‘nikmasining to‘liq shakllanmaganligi kabi holatlar kuzatiladi. Ammo, shuni ishonch bilan ayta olamizki, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalarning umumiyligi maqsadi elektorat, aholi uchun erkin va faravon hayot, demokratiyaga asoslangan fuqarolik jamiyatini rivojini ta’minlash yo‘lini tutib rivolantirib bormoqda.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda mavjud beshta siyosiy partiya o‘z faoliyatini yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib o‘zaro raqobat asosida olib bormoqda. Bular quyidagilar:



O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi dastlabki partiya sifatida 1991-yil 1-noyabrda tashkil etilib, uning ijtimoiy – siyosiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. “1991-yil dekabr oyida partiya O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olindi. Dekabr oxiriga kelib partiyani tashkiliy rasmiylashtirish va uning hududiy tashkilotlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar va Toshkent shahrida hamda mamlakatdagi barcha tuman va shaharlarda tashkil etish jarayoni yakunlandi” [3].

O‘zbekiston “Adolat” sotsial – demokratik partiyasi 1995-yil 18-fevralda tashkil topgan. Ushbu partiya inson, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari davlat hamda jamiyatning eng yuksak qadriyatlari ekanligini tan olib, jamiyat va davlat hayotining barcha jabhalarida har bir insonni faravon hayoti uchun zarur shart–sharoitlar yaratish, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi mezonlarini ta'minlash”[4] singari g‘oyalarni ilgari suradi.

“2003-yil 15-noyabr – Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal – demokratik partiyasining Ta'sis S'ezdi bo‘lib o‘tdi. Unda partiya Dasturi va Ustavi tasdiqlandi, Siyosiy Kengash hamda Markaziy nazorat-taftish komissiyasi tarkibi saylandi”[5].

“2008-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi va “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo‘lib o‘tdi va ushbu ikki partiya negizida yangi O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi (O‘zMTDP) tashkil etildi”[6].

“2019-yil 8-yanvarda O‘zbekiston Ekologik harakati negizida O‘zbekiston Ekologik partiyasi tashkil etildi. Ushbu partiyaning asosiy maqsadi barqaror rivojlanishga, ekologik havfsizlikka erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun tabiiy resurslarni saqlash va qulay atrof–muhitni yaratishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni ta'minlash, atrof–muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslarni saqlash, davlat, jamiyat va mamlakatning har bir fuqarosini vazifasi bo‘lishiga erishishga ko‘maklashishga qaratilgan”[7].

So‘nggi yillarda mazkur siyosiy partiyalar O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida o‘z faolliklarini oshirib bormoqda. Bunda ularga yaratib berilgan qulay ijtimoiy-siyosiy,



huquqiy, iqtisodiy muhit ularning fuqarolik jamiyatining kuchli siyosiy institutiga aylanishiga imkon bermoqda.

Ko‘ppartiyaviylik va demokratiya o‘rtasida kuchli bog‘liqlik bor bo‘lib, zamonaviy sharoitda ular bir–birini kafalotlovchi hamda bir–birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida qaralishi lozim. Ko‘plab mahalliy olimlarimiz ham mazkur yo‘nalishda o‘z yondashuvlarini ilgari surgan. Masalan, X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzaqovlarga ko‘ra, “Ko‘ppartiyaviylik demokratiyaning muhim sharti bo‘lib, bo‘linuvchi hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi munosabatlarda konstitutsiyaviy tartibga soluvchilarining mavjudligi (inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari kafolatlari)dir”[2, -B. 116] deb ta’kidlashadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz mumkinki, O‘zbekiston sharoitida ko‘ppartiyaviylik tizimi demokratiyani kafalotlovchi, erkin va farovon fuqarolik jamiyatni rivojini ta‘minlovchi partiyaviy tizim sifatida shakllanishda davom etmoqda. Ko‘ppartiyaviylikka asoslangan demokratiya sharoitida saylovlarni orqali davlat boshqaruvi organlari shakllantiriladi va shu orqali aholi va elektoratning boshqaruvdagagi ishtiroki ta‘minlanadi. Ko‘ppartiyaviylikning davlat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda aholining kamchilikni tashkil qiluvchi qatlamlari manfaatlarini ham hisobga olishi ijtimoiy davlatning rivojlanishiga hissa qo‘sishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylikning rivojiga xizmat qilish nuqtai nazaridan quyidagilarni taklif qilamiz:

- O‘zbekistonda mavjud siyosiy partiyalar faoliyatini samaradorligini yanada oshirish maqsadida mazkur sohadagi islohotlarni izchil davom ettirish;
- Siyosiy partiya va partiyaviy tizimlar xususan, ko‘ppartiyaviylikka doir tadqiqotlarni yanada ko‘paytirish hamda olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish nuqtai nazaridan ilm-fan va amaliyot o‘rtasidagi integratsiyalashuvni yanada kuchaytirish.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-sodan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
<https://lex.uz/docs/5841063>.



2. Odilqoriyev X.T., Razzaqov D.X. Siyosatshunoslik darslik. “O‘qituvchi” NMIU. 2008. 344-b.
3. <https://xdp.uz/history> - O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi rasmiy sayti.
4. <http://www.adolat.uz> -O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi rasmiy sayti.
5. <https://uzlidep.uz/history-of-the-party> - Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining rasmiy sayti.
6. <https://mt.uz/uz/partiya-ustavi> - O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi rasmiy sayti.
7. <https://ekolog.uz> sayti.